

OILADA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM JIHALARI.**Rashidova Zamira Sharofovna***Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya 2-kurs talabasi*

Sharqda oila, oila qurish, uning mustahkamligi, faravonligi, barqarorligini ta'minlash insonning o'z millati, ajdod – avlodlari va jamiyat oldidagi eng muqaddas burchlaridan biri hisoblanadi. Oila, er – xotin munosabatlari qadimgi qo'lyozmalarda, jumladan, buyuk mutafakkir Zardusht diniy asar sifatida bir tizimga solgan "Avesto"da ham yetarlicha o'z ifodasini to'gan bo'lib, unda barchaning oila va oilaviy munosabatlarga oid qoidalarga rioya qilishi lozimligi ta'kidlangan. Asarda er-xotinning vafo va sadoqati yuksak baholanib, ularning bir-birlariga g'amxo'r va mehribon bo'lishlariga e'tibor qaratilgan. Unda yaqin qarindoshlarning o'zaro oila qurishi man etilgan, ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi uqtirilgan. Bir nechta farzandni tarbiyalagan ayollar mukofotlanishga sazovor ekanligi ta'kidlangan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ayolning haq-huquqini himoya qilish o'sha davrda ham qonun darajasiga ko'tarilgan.

Farobiyning tarbiyada jamiyatning tutgan o'rni haqidagi fikrlarida bola tarbiyasiga faqatgina ota-ona emas, balki qo'ni-qo'shni, yor-birodar va mahalla ham javobgar ekanligi haqidagi sodda va ayni chog'da buyuk sharqona qarashlar asoslab berilgan. Farobiy tomonidan ilgari surilgan fikrlardan shaxs ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat, degan pedagogik qoidaning kurtaklari qadim davrlardayoq mavjud bo'lganligini, vaziyatning o'zgarishi bu tarbiyaga ta'sir qilishi haqida qimmatli mulohazalarni bayon etishgan.

Al-Xorazmiyning, "zamondan yaxshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadi" deb aytgan so'zlarida uning oila muhitning bola tarbiyasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish va inson shaxsining ta'lim natijasida kamolotga erishishi uqtirilgan.

Abu Rayhon Beruniy farzand tarbiyasida tan va ruh pokligi masalasiga alohida e'tibor bergan. Uning fikricha, oilada tozalik, pokizalik va tartib mavjud ekan, u yerda ma'naviy poklik ham bo'ladi. U ota-onalarga farzandini mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan, bolani qattiq g'azablanish, qo'rqitish, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erilishini aytib, ular istagan foydali narsani topib berish, sevmagan

narsasidan uzoqlashtirish lozimligini ta'kidlaydi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xolatlarni keltirib chiqaradi.

Oilada bola tarbiyasi masalasi, Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rin egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolaning salomatligi, tarbiyasi, ruhiyati haqida qimmatbaho fikrlarini yozgan. Jumladan, "Tadbiri al-manozil" nomli asarining kattagina qismi oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan. Bunda u bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, tarbiyani bolaning murg'akligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. Allomaning "Tib qonunlari" nomli asarida bolaga tug'ilmasdan oldin g'amxo'rlik qilish uchun onaning salomatligi, jismoniy va ruhiy pokligiga e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan. Ibn Sinoning "Tadbiri al-manozil" asarida er-xotinning yaxshi sifatleri sanab o'tiladi. Ularning bola uchun o'rnak bo'lib, uning kelajak taqdirini o'ylashlari muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida e'tirof etiladi. Shuningdek, u mehnatsevarlikning bola tarbiyasidagi ahamiyatini ta'kidlab, ota-onalarni o'z farzandlariga kasb-hunar o'rgatishga chaqiradi, mehnatsiz hayot kechirishning bolaga salbiy ta'sirini ko'rsatib beradi.

Oila, bola tarbiyasi masalasi, buyuk shoir, hazrat Alisher Navoiyning adabiy-me'rosida ham munosib o'rinni egallaydi. U ota-onaning yaxshi sifatlerini ulug'laydi. Bunday sifatleri ularda jamuljam bo'lishi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi. Xususan, Alisher Navoiy oiladagi ayrim o'zaro kelishmovchiliklar bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishini, oilaning buzilishiga olib kelishini ta'kidlaydi.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 63-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo'lish huquqiga ega. Onalik bolalikni muhofaza qilish bo'yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan. Jumladan, "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to'g'risida" 1994 yil 22-avgustda farmon chiqarilib, muhtoj oilalarga moddiy va ma'naviy yordam berishni qo'llash kengaytirildi.

Oilaviy hayot masalalari huquqiy asoslarini takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish borasida ham muhim ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Res'ublikasining amaldagi "Oila kodeksida"

oilaviy huquqiy munosabatlar yangicha hal etilgan. Chunonchi, milliy negizlarga asoslanganligi ya'ni quda-andachilik, qarindosh-urug'chilik, bobo-buvilar va nabiralar o'rtasidagi munosabatlar.

Vatanimizda milliy qadriyatlarimizni e'zozlash, oilani mustahkamlanishiga e'tibor qaratish, oiladagi farzandlar tarbiyasiga, ta'lim olishiga jiddiy yondoshish masalalariga katta ahamiyat berila boshlandi. Oilani qurishda farzand ko'rish, farzandni barkamol inson qilib tarbiyalash, kelajak mevasi sifatida tarbiyalash bosh maqsad qilib qo'yiladi. Keyingi yillarda yurtimizda har qaysi yilga aniq bir nom berib, shu asosda maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish yaxshi an'anaga aylanib qoldi. Bugungi davr ota-onalarining o'ziga xos ijobiy fazilatlari ham salbiy jihatlari ham mavjudki, bu albatta oiladagi farzand tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi. "Ota-ona – qirg'oq, bola ko'prik", degan hikmat bor xalqimizda. Farzandni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda ota-onaning o'rni beqiyosdir. Azaliy udumga binoan, farzand tarbiyasida ota-onadan ham, bobo, momo, qo'ni-qo'shni va qarindoshlarning ta'siri kuchliroq bo'ladi. Ular oiladagi ma'naviy muhitning muhim omili hisoblanadi. Bunday ma'naviy tarbiya an'anasi buyuk ajdodlarimiz tarixida o'ziga xos o'rin tutgan. Oilada farzand tarbiyasiga to'xtalib, Abdurauf Fitrat shunday degan edi: "Har bir oilaning saodati va izzati, albatta shu xalqni ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli, tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi", degan edillar. Shuning uchun oilada farzandlarni tarbiyalashda milliy tarbiyaning o'rni katta ekanligi va hamma vaqt dolzarbligi uqtiriladi. Oiladagi kattalarning barcha xislatlari, fazilatlari yosh bolalarga o'tadi va ularning ma'naviyatini zamon ruhi bilan qurollantiradi. Farzand tarbiyalashda ko'p asrlik milliy-pedagogik an'analardan, umuminsoniy qadriyatlardan keng, oqilona foydalanish masalalariga ham mamlakatimizda katta e'tibor berilmoqda.

Oila qurish har bir insonning tabiiy ehtiyoj, ijtimoiy mas'uliyati ekan, buning uchun kerak bo'lgan ma'naviy, jismoniy, tibbiy muammolarni bilish, hayotga mustaqil qadam qo'yish arafasida turgan qizlar va yigitlar uchun fan, texnika asoslarini egallash bilan barobardir. Inson oila qurishi, farzand ko'rishi zarur ekan uni tarbiyalash esa yanada muhimroqdir. Ota-bobolarimiz asrlar davomida oila qurishga mas'uliyat bilan yondoshganlar, yoshlarni ma'naviyatli bo'lib tarbiyalanishiga katta e'tibor berganlar. Kelinning yoki kuyovning yetti pushti sog'-salomatligini, ularning axloq odobini, ota-onasi,

qarindosh urug'larini surishtirish ham ajoyib an'ana bo'lgan. Shunday ekan, burch va mas'uliyat ekanini anglab yetmoqliklari hamda mustahkam oilani shakllantirish borasidagi milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz haqida yoshligidanoq to'la va to'g'ri tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Turli xalqlardagi oilaviy munosabatlarning axloqiy, huquqiy, ma'naviy mezonlarini aynan bir xil me'yorda o'lchab bo'lmaydi. Ayrim davrlarda oilalarning barqarorligi zaif bo'lsa, ba'zan esa mustahkam bo'lgan.

Hozirgi davrda ba'zi mamlakatlarda odamlar oila qurishni oddiy holatdek tasavvur etmoqdalar. Yoshlar hayotga yengil-elpi qarab, ba'zan ota-ona bilan maslahatlashmay oila qurib, bir oz vaqtdan keyin ajrashib ketmoqdalar. Buning sababi, oilaviy munosabatlarga asos bo'lgan ma'naviy omillarning zaifligidir. Natijada, jamiyatda bir qancha oilalarning buzilib ketishi, tirik yetimlarning ko'payishi hamda go'daklar ota-onaning mehridan judo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu nimaga olib keladi? Albatta, ota-onasiz qolib, mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan yetimlar soni ko'payishi va shu davr hamda kelajak avlodlar uchun ma'naviy inqirozni kuchayishiga olib keladi.

Xalq ma'naviy boyligi yangi davr, zamon bilan bog'langan holda, ma'naviyatning yangi qirralarini hayotimizga kiritib kelmoqda. Vatanni taraqqiy etishi uchun mehnatini ayamalikda, millatga tegishli ma'naviy boyliklarni tiklash, boyitish, ko'z qorachig'idek asrash kabi muhim tomonlarda aks etib kelmoqda. Bularning barchasi yosh avlodning ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalanishiga muhim omil bo'ladi va kelajak avlodga mas'uliyat yuklaydi. Bu ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirish va qondirishda insonlarda oila va jamiyat oldida juda katta talablarni bajarishni taqazo etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, milliy tarbiya barcha davrlarda muhim ahamiyat kasb etgan, barkamollik omili bo'lib xizmat qilgan. Aynan bugungi kunda, yosh avlodni milliylik ruhida tarbiyalash, milliy tarbiyaning ulug'vor vazifalarni anglagan holda, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanish barchamizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: "O'zbekiston" 1996-yil.
2. Karimov I.A. Ayolga ehtirom. –T.: "O'zbekiston" 1999-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2014-yil.

4. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq" –T.: "O'qituvchi", 1996-yil.

5. Abu Nasr Farobiy. "Fozil odamlar shahri" –T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi", 1993-yil.